


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5144,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **1,9%** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **507,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **92,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4637,2** mlrd. so'mni (**1,3%** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **475,9** mlrd. so'mni (**20,1%** ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Respublika bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5144,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **98,1%** ni tashkil etdi.

Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **90,1 %** va yirik korxonalar hissasiga **9,9%** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **30,4 %** ulush bilan **1 1565,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bo'zatov tumani **0,6 %** ulush bilan **33,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **4637,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **1,3%** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **90,1%** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qonliko'l (99,8 %), Qorao'zak (99,4%), Taxtako'pir (99,3%) Shumanoy (99,3 %), Kegayli (99,1%), va Mo'ynoq tumanlarida (99,0 %) yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Bo'zatov (99,0 %), Amudaryo (98,7%) va Nukus shahrida (98,4 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 144,9	98,1	507,7	92,5	4 637,2	98,7
Nukus shahri	1 565,5	98,4	390,2	93,8	1 175,3	100,0
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	369,8	98,7	14,4	89,9	355,4	99,1
Beruniy	494,6	98,2	11,2	114,0	483,3	97,9
Bo'zatov	33,2	99,0	0,4		32,8	97,7
Qonliko'l	128,4	97,4	0,3	115,7	128,1	97,3
Qorao'zak	162,0	96,7	1,0	166,6	161,0	96,4
Kegeyli	77,0	97,6	0,7	127,7	76,3	97,3
Qo'ng'iro't	374,4	98,0	31,5	2,4 6	342,9	92,9
Mo'ynoq	36,1	98,2	0,4	64,4	35,7	98,8
Nukus	92,9	97,1	1,0	2,0 6	91,9	96,5
Taxiatosh	122,9	98,0	15,9	80,0	107,0	101,4
Taxtakopir	128,3	97,0	0,9	80,7	127,4	97,1
To'rtko'l	452,1	98,0	16,7	41,5	435,4	103,4
Xo'jayli	513,8	98,3	8,4	88,2	505,5	98,5
Chimboy	204,5	97,9	6,8	44,7	197,7	102,0
Shumanoy	107,4	98,1	0,7	98,6	106,7	98,1
Ellikqal'a	282,1	97,3	7,2	154,1	274,9	96,4

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **92,5 %** ni va **507,7**mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **9,9%** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4637,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **1,3 %** ga kamaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **90,1%** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Nukus sh.	24,9	75,1
Ellikqal'a	2,6	97,4
Shumanoy	0,7	99,3
Chimboy	3,3	96,7
Xo'jayli	1,6	98,4
To'rtko'l	3,7	96,3
Taxtako'pir	0,7	99,3
Taxiatosh	12,9	87,1
Nukus	1,1	98,9
Mo'ynoq	1,0	99,0
Qo'ng'iro't	8,4	91,6
Kegeyli	0,9	99,1
Qorao'zak	0,6	99,4
Qonliko'l	0,2	99,8
Bo'zatov 1	1,2	98,8
Beruniy	2,3	97,7
Amudaryo	3,9	96,1

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,8 %), Qorao'zak (99,4 %) Taxtako'pir (99,3%) va Shumanoy (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,9% ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (24,9%), Taxiato'sh (12,9 %), Qo'ng'iro't (8,4 %) va Amudaryo (3,9 %) tumanlarida kuzatildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA AHOLI
JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2697,6** ming so'm (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **3,3** % ga kamaydi) va Nukus shahri (97,0 %) hamda, Taxiatoş (96,8 %), Nukus (95,3 %), Beruniy (96,4 %), Xo'jayli (97,1 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nukus shahri (4875,5 ming so'm), Xo'jayli (4170,7 ming so'm) va Taxtako'pir (3166,7 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2697,6	96,7
Nukus shahri	4875,5	97,0
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1849,9	97,0
Beruniy	2569,2	96,4
Bo'zatov	1515,3	
Qonliko'l	2507,8	96,0
Qorao'zak	3061,4	96,0
Kegeyli	1059,1	120,2
Qo'ng'iro't	2876,7	97,1
Mo'ynoq	1112,3	95,4
Nukus	1839,7	95,3
Taxiatoş	1658,3	96,8
Taxtako'pir	3166,7	95,8
To'rtko'l	2099,9	96,3
Xo'jayli	4170,7	97,1
Chimboy	1816,0	100,5
Shumanoy	1891,8	96,4
Ellikqal'a	1762,9	95,6




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari

Respublika bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **475,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **20,1** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **162,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **84,3**%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **313,1**mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **77,8**%) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **162,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **313,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	475,9	79,9	162,8	84,3	313,1	77,8
Nukus shahri	140,7	63,5	48,1	67,0	92,6	61,8
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	48,4	72,5	16,6	76,5	31,9	70,5
Beruniy	41,7	85,8	14,3	90,6	27,5	83,5
Bo'zatov	1,5	45,3	0,5	47,9	1,0	44,1
Qonliko'l	6,1	270,5	2,1	285,5	4,0	263,3
Qorao'zak	8,2	382,1	2,8	403,3	5,4	371,9
Kegeyli	15,0	196,0	3,5	137,7	11,5	223,9
Qo'ng'iro't	54,7	92,0	18,7	97,1	36,0	89,5
Mo'ynoq	2,6	102,7	2,6	102,7	-	-
Nukus	3,7	117,6	1,3	124,1	2,4	114,4
Taxiatosh	12,6	77,7	4,3	82,0	8,3	75,6
Taxtako'pir	7,5	134,7	2,6	142,2	4,9	131,2
To'rtko'l	29,3	93,8	10,0	99,0	19,3	91,3
Xo'jayli	68,4	71,1	23,4	75,1	45,0	69,2
Chimboy	19,0	115,2	6,5	121,6	12,5	112,2
Shumanoy	3,1	151,7	1,1	160,2	2,1	147,7
Ellikqal'a	13,4	129,1	4,6	136,3	8,8	125,7



2,9
mlrd. so'm

Tuzlamalar



72,7
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



4,0
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

8,7
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



10,9
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

6,8
mlrd. so'm



Tuxum

27,1
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

4,5
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

1,9
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2,8
mlrd. so'm



Ziravorlar

12,6
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **162,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**72,7** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI**


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **313,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **211,4** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **35,4** mlrd. so'mni, otlar **1,7** mlrd. so'mni, parrandalar **2,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0%** ni tashkil etib, **103,5** mlrd. so'mga yetdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,0%** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **75,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	103,5	94,0	18,3	54,8 b.	85,2	74,1
Nukus shahri	36,1	78,9	-	-	36,1	75,7
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	3,9	78,8	-	-	3,9	75,2
Beruniy	2,5	76,0	-	-	2,5	72,6
Bo'zatov	0,3	73,2	-	-	0,3	69,8
Qonliko'l	1,0	73,6	-	-	1,0	70,2
Qorao'zak	2,2	76,9	-	-	2,2	73,4
Kegeyli	0,7	73,7	-	-	0,7	70,3
Qo'ng'iro't	38,6	145,8	18,3	-	20,3	73,2
Mo'ynoq	0,3	76,0	-	-	0,3	72,5
Nukus	0,7	76,7	-	-	0,7	73,3
Taxiatosh	1,9	77,5	-	-	1,9	74,0
Taxtakopir	0,6	71,0	-	-	0,6	67,8
To'rtko'l	5,2	74,4	-	-	5,2	72,4
Xo'jayli	4,8	75,1	-	-	4,8	71,7
Chimboy	2,4	78,3	-	-	2,4	74,7
Shumanoy	0,4	73,8	-	-	0,4	70,4
Ellikqal'a	2,0	75,8	-	-	2,0	72,4

2019- yil
yanvar-sentabr

2020- yil
yanvar-sentabr



Umumiy ovqatlanish korxonolari savdo aylanmasi **103,5** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 94,0%) va mulkchilik shakllari bo'yicha **103,5** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0 %) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	103 523,4	100,0	103 523,4	100,0	-	-
Nukus shahri	36 053,0	100,0	36 053,0	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>				100,0		-
Amudaryo	3 891,6	100,0	3 891,6	100,0	-	-
Beruniy	2 459,7	100,0	2 459,7	100,0	-	-
Bo'zatov	305,3	100,0	305,3	100,0	-	-
Qonliko'l	978,8	100,0	978,8	100,0	-	-
Qorao'zak	2 242,5	100,0	2 242,5	100,0	-	-
Kegeyli	717,4	100,0	717,4	100,0	-	-
Qo'ng'iro't	38 606,7	100,0	38 606,7	100,0	-	-
Mo'ynoq	312,5	100,0	312,5	100,0	-	-
Nukus	737,8	100,0	737,8	100,0	-	-
Taxiatosh	1 917,0	100,0	1 917,0	100,0	-	-
Taxtakopir	573,2	100,0	573,2	100,0	-	-
To'rtko'l	5 210,3	100,0	5 210,3	100,0	-	-
Xo'jayli	4 772,2	100,0	4 772,2	100,0	-	-
Chimboy	2 391,4	100,0	2 391,4	100,0	-	-
Shumanoy	386,1	100,0	386,1	100,0	-	-
Ellikqal'a	1 967,9	100,0	1 967,9	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Respublika bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1315,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **10,2%** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **496,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **80,9%**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **819,6** mlrd. so'mni (**3,7%** ga kamayish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

1315,8 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

496,2 mlrd. so'm, 37,7%

Mikrofirma va kichik korxonalar

819,6 mlrd. so'm, 62,3%

Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'ZGARISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Amudaryo (136,3 %), Kegayli (196,0 %) va Taxiatoosh tumanlarida (7,4 b.) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Taxiatoosh (113,3 %), Nukus (98,8 %) va Ellikqal'a (91,1 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 315,8	89,8	496,2	80,9	737,8	95,7
Nukus shahri	677,4	93,2	205,5	68,6	424,8	109,8
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	12,6	69,0	1,1	134,1	10,3	65,9
Beruniy	53,0	78,3	-	-	47,7	77,0
Bo'zatov	0,2	100,3	-	-	1,5	-
Qonliko'l	12,4	61,6	-	-	10,1	55,4
Qorao'zak	7,9	71,8	-	-	7,9	71,8
Kegayli	0,6	77,3	0,0	147,0	0,6	77,2
Qo'ng'iroq	18,8	59,7	-	-	18,8	59,7
Mo'ynoq	2,0	65,3	-	-	1,8	65,7
Nukus	73,6	98,5	-	-	66,3	98,8
Taxiatoosh	28,5	131,4	8,1	12,6 b.	18,4	95,4
Taxtakopir	7,9	82,0	-	-	7,1	80,6
To'rtko'l	55,8	77,5	-	-	50,2	80,8




YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda





Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **819,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **3,7%** ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **62,3 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Qo'ng'iro't, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Chimboy va Ellikqal'a tumanlarida 100,0 % bo'lgan. Eng past ulush esa Xo'jayli (5,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'ri pasayib bormoqda. 2020- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **1315,8** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **1315,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.